

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.M.Rasulov

Axborot va axborot makonining ijtimoiy-siyosiy kontseptual asoslari 235

A.A.Salmonov

Inklyuziv jamiyatning ijtimoiy-siyosiy omillari 240

B.X.Tolipov

Yangi O'zbekistonda yoshlar iqtisodiy faolligini sog'lom raqobat madaniyati
asosida rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari 245

F.A.Mirzayeva

Zamonaviy tariqatchilikdagi ijtimoiy-siyosiy muammolar yechimida
"Maktubot" asarining ahamiyati 249

I.M.Arzimatova

Boshqaruv tizimida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish muammolari 254

I.A.Asatulloev

Siyosiy ta'sirni amalga oshirish vositalari va mexanizmlari 260

O.M.Karimov

Majburiy mehnatga qarshi kurashda xorij tajribasi: muammo va yechimlar 266

Q.Sulaymonov

Siyosiy madaniyatning milliy-madaniy negizlari va o'ziga xos xususiyatlari 269

A.A.So'fiev

Tadbirkor shaxs huquqiy madaniyatini oshirishning ijtimoiy zarurati 273

M.R.Sodiqova

O'zbekiston ipakchilik sanoatida xalqaro hamkorlik aloqalari va uning iqtisodiy
ahamiyati (2000-2021-yillar) 278

S.A.Soxibov

Korrupsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri: O'zbekiston va global kontekstda oqibatlar tahlili 282

Q.A.Pulatov

Sotsial transformatsiya sifatida tizimli jarayon: falsafiy va tarmoqlararo tahlil 286

D.E.Normatova

Qadimgi Xitoyda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy qarashlar 290

O.M.O'sarkulov

O'zbekistondagi koreys diasporasi milliy identikligining asosiy ko'rinishlari 294

G.I.Hashimova

Harbiy ijtimoiy ish – davlat va fuqarolik institutlarining kontseptual-nazariy,
siyosiy-huquqiy faoliyati tizimi sifatida 299

I.A.Rakhimov

Problems with performance indicators (KPI) set by mahalla chairmen
when evaluating the performance of the "Mahalla seven" 304

S.P.Tojiboyev

Davlat boshqaruvida korrupsiogen xatti-harakatlarning psixosotsial ildizlari 308

TARIX**F.M.Rahmonberdiyev**

XX asr 20 – 50-yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarining B.Ahmedov hayotida aks etishi 313

F.M.Rahmonberdiyev

Tarixshunoslikda akademik Bo'riboy Ahmedov hayoti va ilmiy faoliyatini
davrlashtirish masalalari: yangi talqinlar 321

E.A.Botirov

Bir olimning izlari: L.M. Landa shaxsiy fondi sahifalariga nigo 328

O.A.Radjabov

Tojikiston temiryo'l tashkiloti va uning faoliyati tarixi 332

S.B.Mamataliyeva

Turkistonning islomgacha bo'lgan davrdagi shishalari tarixi 336

S.I.Yoqubjonov

O'zbekiston hunarmandchiligi: rivojlanishi va xalqaro maydonda bugungi o'rni 342

D.A.Qosimov

Turkiston o'lkasida Farg'ona viloyati pochta-telegraf tizimining tarixiy



UO'K: 316.7:321

INKLYUZIV JAMIYATNING IJTIMOY-SIYOSIY OMILLARI

СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБЩЕСТВА

SOCIO-POLITICAL FACTORS OF AN INCLUSIVE SOCIETY

Salmonov Ahadjon Abdullajonovich 

Fag'ona davlat universiteti Falsafa va milly g'oya kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekistonda inklyuziv jamiyatni shakllantirish jarayonida namoyon bo'layotgan ijtimoiy va siyosiy omillar, shuningdek, xorijiy ilmiy tadqiqotlar asosida falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Inson qadri, ijtimoiy adolat va teng imkoniyat tamoyillari zamonaviy o'zgarishlarning g'oyaviy asosini tashkil etayotgani ko'rsatilgan. Mahalla institutining transformatsiyasi, inklyuziv ta'lim tizimi, yoshlar siyosati va fuqarolik faolligi inklyuziv jamiyatning poydevori sifatida talqin etiladi.

Аннотация

В статье анализируются социально-политические факторы, проявляющиеся в процессе формирования инклюзивного общества в Узбекистане, с философской точки зрения, основанной на зарубежных научных исследованиях. Показано, что принципы человеческого достоинства, социальной справедливости и равных возможностей составляют идеологическую основу современных преобразований. Трансформация института махаллы, система инклюзивного образования, молодежная политика и гражданский активизм трактуются как основы инклюзивного общества.

Abstract

This article analyzes the social and political factors that are manifested in the process of forming an inclusive society in Uzbekistan, as well as from a philosophical point of view, based on foreign scientific research. It is shown that the principles of human dignity, social justice and equal opportunities constitute the ideological basis of modern changes. The transformation of the mahalla institution, the inclusive education system, youth policy and civic activism are interpreted as the foundations of an inclusive society.

Kalit so'zlar: inklyuziv jamiyat, falsafa, adolat, inson qadri, ijtimoiy omillar, siyosiy islohot, O'zbekistonda "mahalla" instituti.

Ключевые слова: инклюзивное общество, философия, справедливость, человеческое достоинство, социальные факторы, политическая реформа, институт "махаллы" в Узбекистане.

Key words: inclusive society, philosophy, justice, human dignity, social factors, political reform, "mahalla" institution in Uzbekistan.

KIRISH

XXI asrda inklyuziv jamiyat g'oyasi ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim falsafiy yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Inson jamiyatning muhim asosiy mezon, har bir shaxsning imkoniyatini ro'yobga chiqarish, tenglik va adolat tamoyillarini amalda qaror toptirish inklyuzivlik konsepsiyasining asosiy mazmunini tashkil etadi. O'zbekistonda 2020-2025-yillarda olib borilayotgan "Inson qadri uchun" siyosati, Yangi Konstitutsiya O'zbekistonning ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotida yangi bosqichni boshlab berdi. Yangi Konstitutsiyaning inson huquqlariga yo'naltirilgan qoidalari inklyuziv jamiyat g'oyasining amaliy ifodasi sifatida inson qadri, erkinlik, adolat, teng imkoniyat, diniy bag'rikenglik va ilmiy erkinlik tamoyillariga asoslangan **inklyuziv, demokratik va dunyoviy davlat** konsepsiyasini mustahkamlandi. Bu jarayonni chuqurroq anglash uchun inklyuziyani falsafiy kategoriya sifatida tahlil etish muhimdir. Chunki u shunchaki siyosiy islohot emas, balki jamiyatning axloqiy va ma'naviy ontologiyasini o'zgartiruvchi jarayondir.

Inklyuziv jamiyat barcha insonlarning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hayotda teng ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lgan jamiyatdir. O'zbekistonda "Yangi O'zbekiston" konsepsiyasi [1] asosida inson huquqlari, gender tengligi, nogironligi bo'lgan shaxslarning integratsiyasi, yoshlar siyosati va mahalla institutining modernizatsiyasi orqali inklyuziv ijtimoiy tizim shakllanmoqda.

Jahon hamjamiyati tomonidan inklyuziv jamiyatning rivojlanish jarayonlariga konseptual yondashuvi sohadagi ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish zarurati yuzaga keldi. Inklyuziv ta'limni

SIYOSAT

rivojlanishi inklyuziv jamiyat taraqqiyotidagi muhim vazifani bajarmoqda. Ijtimoiy g'oya sifatida inklyuziv jamiyat g'arb mamlakatlarida siyosiy munozaralar va individual farqlarga asoslangan kamsitishlarga qarshi kurash jarayonida davlat siyosatining tamoyiliga aylandi. Davlat siyosatining tamoyiliga aylangan inklyuziv jamiyat g'oyasi muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan O'zbekistonda inson qadri, uning huquq va manfaatlarini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi etib belgilangani qayd etilib, barcha fuqarolar uchun bir xil imkoniyatlar amal qiladigan inklyuziv jamiyatni barpo etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish masalasi ilgari surildi. Bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ijtimoiy rivojlanish va aholi farovonligining bosh mezonini bo'lgan "Inson qadri uchun" tamoyili asosida barcha sohalarida shaffoflikni ta'minlashga e'tibor qaratilmoqda. Hususan, bino va inshootlarni qurish, rekonstruktsiya qilish, jamoat transporti, axborot va aloqa vositalarini ishlab chiqarishda barcha shaxslar moneliksiz foydalana olishiga ahamiyat qaratilayotgani, nogironligi bor shaxslarni rehabilitatsiya qilish va protezlash markazlaridagi qamrov hajmini ikki barobarga oshirish, hududlarda faoliyat ko'rsatayotgan markazlarni kengaytirib, zamonaviy tibbiy va rehabilitatsiya uskunalari bilan jihozlash ishlari amalga oshirilayotgani, barcha soha va tarmoqlarda fuqarolarning faol ishtirok etishi, ta'lim, fan, madaniyat, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish, madaniy ehtiyojlarni ta'minlash uchun barcha imkoniyatlar yaratilayotgani inklyuziv jamiyat sari rivojlanishni belgilab bermoqda. Bu esa o'z navbatida jamiyatning ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy, siyosiy sohalarida inklyuziv o'sishga alohida ahamiyat qaratilishi dolzarb masala ekanligini ko'rsatib beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Jamiyatdagi inklyuziv jarayonlarni o'rganishda xorijlik hamda mahalliy olimlar o'zlarining subyektiv qarashlari va tadqiqot natijalariga asoslangan holda turli ilmiy-nazariy, falsafiy va uslubiy yondashuvlarga tayanadi. Mahalliy tadqiqotlarda asosan taniqli o'qituvchilar, psixologlar, defektologlarning asarlaridan foydalaniladi, ular maxsus psixologiya, korreksiya pedagogikasi, defektologiya, iqtisodiy o'sish, sotsiologik tadqiqotlar va boshqa shu kabi sohalarining shakllanishiga hissa qo'shgan. Shu jihatdan mavzuning metodologik asoslari inklyuziv jamiyatning ijtimoiy-siyosiy omillarini o'rganishning turli segmentlarini tushunish va talqin qilishning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi ijtimoiy-falsafiy, pedagogik va sotsiologik manbalar tomonidan ustuvor hisoblanadi.

Falsafiy jihatdan inklyuziv jamiyat insonning mavjudlik mohiyati (ontologiyasi) va adolat tamoyili (aksiologiyasi) bilan bog'liq tushuncha sifatida talqin etiladi. Jamiyatning gumanistik paradigmasini ifodalaydi. Bu haqida asosiy falsafiy yondashuvlar quyidagicha:

- Marksistik ijtimoiy falsafa: inklyuzivlikni sinfiy tengsizlikni bartaraf etish jarayoni sifatida talqin etiladi.

- Fenomenologik yondashuv (E. Husserl, M. Merlo-Ponti): har bir individning "tajribasi"ni tan olish orqali ijtimoiy mavjudlikni inklyuziv tarzda idrok etish zarur.

- Amaliy axloq falsafasi (J. Rols, M. Sandel): ijtimoiy adolat, teng imkoniyat va erkinlikni inklyuziv siyosatning normativ poydevori sifatida ko'radi.

Inklyuziv jamiyat "yangi ijtimoiy kontrakt" konsepsiyasi bilan uyg'unlashadi. Zamonaviy falsafiy yondashuvlarda (Habermas, 1996. Fraser, 2003) inklyuziya kommunikativ adolat tushunchasi orqali tahlil qilinadi: jamiyatning har bir a'zosi o'z ovozi eshittirish huquqiga ega bo'lishi kerak. Shu bois, inklyuziv siyosat ijtimoiy integratsiyaning eng yuksak bosqichi hisoblanadi.

Inklyuziv jamiyatni shakllantirishda iqtisodiy resurslar taqsimoti emas, balki insonni ustuvor etib qo'ygan axloqiy va siyosiy madaniyatni barpo etish zarur. Falsafiy jihatdan, bu jamiyat "boshqani tan olish" va "birgalikda yashash" qadriyatlariga asoslanadi.

O'zbekistonda inklyuziv jamiyatni belgilovchi ijtimoiy-siyosiy omillar mahalla institutining transformatsiyasi asosida izohlash mumkin. Manba: Zaitov E. "Mahalla Transformation: From a Traditional Community to a Social Institution", Gumilyov Journal of Sociology, Kazakhstan. 2025-yil [2]. Mahalla endilikda nafaqat mahalliy boshqaruv tizimi, balki inklyuziv ijtimoiy integratsiyaning ijtimoiy boshqaruv modeli sifatida shakllanmoqda.

Ta'lim tizimida inklyuziya: Manba: Tulenova, G. (2025). "Features of the Inclusive Education Model in the New Uzbekistan." inlibrary.uz. Inklyuziv ta'lim siyosati nogiron bolalar, qizlar va chekka hudud yoshlarini ijtimoiy hayotga qo'shish orqali jamiyatni ko'p qirrali integratsiya tizimiga aylantiradi.

Yoshlar siyosati va gender tengligi: Manba: Marupova I. "Involvement of Youth in Green Transition in Uzbekistan" (2025). Yoshlarning ekologik, siyosiy va iqtisodiy faol ishtiroki inklyuziv siyosatning asosiy strategik yo'nalishi.

Ijtimoiy himoya va nogironlik falsafasi: Manba: Muxaydinova J. "Nogironlikning ijtimoiy-falsafiy talqini: inklyuziv jamiyat shakllanishining nazariy asoslari", 2025-yil. (inlibrary.uz). Nogironlikni "ijtimoiy hodisa" sifatida talqin etilib, inklyuziyani inson qadriini tiklovchi ontologik qadriyat sifatida asoslaydi.

Inklyuzivlik va siyosiy modernizatsiya o'zaro bog'liqligi: O'zbekistonda siyosiy islohotlar (yangi Konstitutsiya, "Inson qadri uchun" siyosati) inklyuzivlikni davlat siyosatining g'oyaviy markaziga aylantirmoqda. Falsafiy nuqtai nazardan ijtimoiy ongning demokratik qayta qurilishidir.

• **Normativ-huquqiy asoslar:** "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi qonun (2021), "Gender tengligi to'g'risida"gi qonun (2019).

• **Madaniy omillar:** milliy qadriyatlar, bag'rikenglik, diniy plyuralizm.

• **Axborot muhitining ochiqqligi:** ijtimoiy tarmoqlarda ijtimoiy faollikning ortishi, fuqarolik jamiyatining rivoji.

Bugungi zamonaviy falsafiy tadqiqotlarda inklyuziv jamiyat haqida ijtimoiy jarayonlarni o'rganish uchun turli tushunchalar va yondashuvlar ishlab chiqilgan va ilmiy tizim sifatida shakllangan. Ya'ni, hozirgi zamon ijtimoiy-falsafiy yo'nalishda inklyuzivlik oddiy ijtimoiy mavzu emas, ilmiy tahlilga ega bo'lgan, metodologik jihatdan mustaqil ilmiy yo'nalishga aylanmoqda. Shuningdek, "ijtimoiy integratsiya", "fuqarolik ishtiroki", "inson qadri" kabi tushunchalar inklyuzivlikni tahlil qilishda asosiy ilmiy kategoriyalarga aylangan. Ammo, bu yo'nalishdagi ishlarning rivojiga inklyuziv jamiyatni o'rganishning metodologik asoslari va tamoyillarining etarli darajada shakllanmaganligi salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois, inklyuziv jamiyatning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini ilmiy tadqiq etish va bu yo'nalishda muammolar majmuasini adekvat ifodalash, tushunish, talqin qilish va tushunish uchun uslubiy va nazariy asos bo'lib xizmat qiladigan to'g'ri konseptual va strategik rivojlanish konsepsiyasini zamonaviy falsafiy tendentsiyalar kontekstida dolzarb masala sifatida o'rganilmoqda. Shu nuqtai nazardan, mavzuni yoritishda dialektik va aksiologik metodlar, sotsiologik va siyosiy tahlil germenetik va komparativ metodlar orqali g'oyaviy mazmuni hamda inklyuziv jamiyatning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Inklyuziv jamiyat — bu barcha insonlarning teng ishtirokini, imkoniyatlar va huquqlarda tenglikni ta'minlovchi ijtimoiy tuzilma. Uning shakllanishi nafaqat iqtisodiy va madaniy, balki chuqur falsafiy va siyosiy omillar bilan belgilanadi. Inklyuziya g'oyasi ijtimoiy adolat, erkinlik va inson qadr-qimmatini markazga qo'ygan global tafakkurning mahsulidir.

Inklyuzivlik g'oyasi Immanuel Kantning "insonni maqsad sifatida ko'rish" tamoyiliga, Jon Rolsning adolat nazariyasiga va Amartya Senning imkoniyatlar yondashuviga tayanadi. Bu konsepsiyalar jamiyatda har bir individning o'zini erkin amalga oshirishini asosiy maqsad sifatida belgilaydi.

• **Adolat tamoyili** – ijtimoiy institutlar teng imkoniyatlarni ta'minlash uchun tashkil etilishi kerak.

• **Inson qadr-qimmat** – har bir inson o'z qiymatiga ega va jamiyatdan chetlab qo'yilmasligi kerak.

• **Imkoniyat tengligi** – inklyuziya iqtisodiy tenglik emas, balki imkoniyatlarni teng taqsimlashga asoslanadi.

Inklyuziv jamiyatning rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy ijtimoiy omillar quyidagilardir:

• Ta'lim tizimining inklyuzivligi – nogironlar, etnik ozchiliklar va ijtimoiy himoyasiz qatlamlarning ta'limga kirish imkoniyati.

• Mehnat bozorida teng imkoniyatlar – diskriminatsiyasiz ishga joylashish va kasbiy o'sish uchun sharoit yaratish.

• Madaniy bag'rikenglik – millat, jins, din yoki ijtimoiy kelib chiqishdan qat'i nazar, barcha fuqarolarga hurmat bilan qarash.

• Axborot ochiqqligi – demokratik institutlarning shaffof faoliyati fuqarolik ishtirokini oshiradi.

Siyosiy jihatdan inklyuziv jamiyat fuqarolik ishtirokiga asoslanadi:

• Huquqiy davlat – qonun ustuvorligi va inson huquqlarini kafolatlash.

• Demokratik boshqaruv – barcha qatlamlarning siyosiy jarayonlarda ishtiroki.

• Siyosiy madaniyat – bag'rikenglik, ijtimoiy hamkorlik va fuqarolik mas'uliyatining kuchayishi.

SIYOSAT

Inklyuziv jamiyat konsepsiyasining falsafiy asoslari insonni “maqsad” sifatida ko‘rish, adolatli jamiyatni qurish, imkoniyat tengligini ta‘minlash kabi g‘oyalar bilan bog‘liq. Siyosiy falsafa nuqtayi nazaridan bu jarayon J.Habermasning kommunikativ adolat konsepsiyasiga mos keladi: insonlar o‘z fikrini erkin bildirish orqali siyosiy tizimni takomillashtiradi.

Bu yondashuvlar inklyuziv jamiyatning uchta asosiy falsafiy poydevorini belgilaydi:

Aksiologik asos – inson qadri, erkinligi va sha‘nini oliy qadriyat sifatida e‘tirof etish.

Ontologik asos – jamiyatning mavjudlik mohiyatida har bir individning o‘rnini tan olish.

Epistemologik asos – inklyuziya orqali ijtimoiy bilim va madaniyatning yangi turlarini shakllantirish.

Bu tamoyillar O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham o‘z ifodasini topgan. Inson manfaatlari ustuvorligini ta‘minlashga qaratilgan siyosat, adolatli boshqaruv, mahalla institutining mustahkamlanishi barchasi falsafiy jihatdan inklyuzivlikning turli shakllaridir.

O‘zbekistonda inklyuziv jamiyatni shakllantiruvchi ijtimoiy omillar mahalla institutining transformatsiyasi bilan izohlanadi. Mahalla o‘zbek jamiyatining eng qadimiy ijtimoiy institutlaridan biri bo‘lib, bugungi kunda u inklyuziv boshqaruv modeli sifatida yangilanmoqda. E.Zaitov tadqiqotida (2025-yil) ta‘kidlanishicha, mahalla endilikda nafaqat an‘anaviy o‘zaro yordam shakli, balki fuqarolik integratsiyasining markaziga aylangan. Bu model jamiyatda ijtimoiy birdamlik va o‘zaro mas‘uliyat tamoyillarini kuchaytiradi.

Inklyuziv ta‘lim tizimi. Ta‘lim tizimidagi inklyuziya nogironligi bo‘lgan bolalar, etnik ozchiliklar va chekka hudud yoshlarini ijtimoiy hayotga jalb etadi. Tulenova G. O‘zbekistonda inklyuziv ta‘lim modellarining rivojlanishini o‘rganib (2025-yil), uni “ijtimoiy barqarorlikning falsafiy negizi” sifatida baholaydi. Ta‘limdagi inklyuziya insonni o‘z imkoniyatlarini anglashga undovchi “ma‘naviy erkinlik maktabi”dir.

Yoshlar siyosati va gender tengligi. Yoshlar siyosati inklyuziv jamiyatning strategik omilidir. Yoshlarning “yashil iqtisodiyot”, ekologik siyosat va ijtimoiy innovatsiyalardagi faolligini inklyuziv modernizatsiya belgisi sifatida ko‘rish mumkin. Bundan tashqari, “Gender tengligi to‘g‘risida”gi Qonun (2019-yil) jamiyatda ayollarning siyosiy va iqtisodiy hayotdagi ishtirokini kuchaytirib, ijtimoiy inklyuziyaning huquqiy asosini yaratdi.

Nogironlik va ijtimoiy omil. Nogironlikni faqat tibbiy masala sifatida emas, balki ijtimoiy mavjudlik shakli sifatida talqin etish O‘zbekistonda yangi falsafiy oqimni shakllantirmoqda. Nogironlikning ijtimoiy-falsafiy talqinida insonni “faol mavjudot” sifatida tan olish zarur. Bu yondashuv inklyuziyaning “insonparvar falsafasi” sifatidagi mohiyatini anglatadi.

O‘zbekistonda siyosiy inklyuziya davlat boshqaruvida quyidagi yo‘nalishlarda rivojlanmoqda:

- Konstitutsion islohotlar (2023-yil) – inson huquqlari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi.

- Fuqarolik jamiyati – OAV erkinligi ochiqlik siyosati orqali turli ijtimoiy guruhlarining ovozi eshittirish imkoniyati yaratilmoqda.

- Raqamli inklyuziya – “Elektron hukumat” va “my.gov.uz” kabi platformalar orqali siyosiy ishtirok mexanizmlari kengaymoqda.

Jamiyatda sotsial stratifikatsiya jarayonlari va sotsial qonunlarning nazarda tutuvchi omillar, inklyuziv o‘rish tendentsiyasini tadqiq etish va falsafiy tahlil etish muhim ahamiyatga ega. Inklyuziv o‘rish ish unumdorligi, teng imkoniyatlar va barqaror muhit bilan uzoq muddatli o‘rish hisoblanadi. Inklyuziv o‘rish tendentsiyasi tengsizlikni kamaytirishni o‘z ichiga oluvchi o‘rish imkoniyatini to‘siqsiz yaratish jarayonlarini kuzatishda aniqlanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yil oktyabr oyida bo‘lib o‘tgan Barqaror rivojlanish sammitida qashshoqlikka barham berish masalasi dunyodagi global muammo va barqaror iqtisodiy rivojlanishning zarur sharti sifatida muhokama qilingan. Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun barcha mamlakatlar uchun ijtimoiy himoyani kengaytirish zarur[3]. 2030-yilgacha bo‘lgan kun tartibi tinch, adolatli va inklyuziv jamiyatlarni ko‘zda tutadi, unda barcha odamlar o‘z imkoniyatlarini munosib va tenglik bilan ro‘yobga chiqarishlari mumkin. Inklyuziv jamiyatlarni ta‘minlamaslik zo‘ravonlikning asosiy sababi sifatida aniqlanadi va barqaror rivojlanishni sekinlashtiradi. 10 va 16-maqsadlar bevosita inklyuziv jamiyatga qaratilgan. Dunyo miqyosida tengsizlikni kamaytirish orqali, teng imkoniyatlar va keng vakillikka e‘tibor qaratgan holda inklyuziv jamiyatga erishish barqaror tinchlikning asosiy talabidir.[4]

Inklyuziv jamiyat adolat va erkinlikning ontologik birligidir. O‘zbekiston tajribasida bu birlik milliy qadriyatlar, diniy bag‘rikenglik va zamonaviy demokratiya sintezida namoyon bo‘lmoqda.

Inklyuziya shunchaki siyosiy strategiya emas, balki insonning mavjudlik ma'nosini anglash jarayonidir.

XULOSA

Inklyuziv jamiyatni shakllantirish faqat siyosiy yoki iqtisodiy jarayon emas, balki insonning mavjudlik ma'nosini yangidan kashf etish jarayonidir. Falsafiy jihatdan bu jamiyatning o'zini adolat, erkinlik va tenglikning mavjudlik shakli sifatida qayta anglashidir. O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, inklyuzivlik g'oyasi mahalla, ta'lim, yoshlar siyosati va fuqarolik ishtiroki orqali real ijtimoiy hodisaga aylanmoqda.

O'zbekistonda inklyuziv jamiyat g'oyasi amaliy falsafaga sifatida namoyon bo'lib, inson jamiyatning yangi ma'naviy paradigmasini ifodalaydi. Ijtimoiy inklyuziya ta'lim, mahalla, yoshlar siyosati va fuqarolik ishtiroki orqali mustahkamlanmoqda. Siyosiy jihatdan esa u adolat, tenglik va hamjihatlikni ta'minlovchi yangi ijtimoiy omildir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашри. –Тошкент: "O'zbekiston", 2022. – 440 бет.
2. Zaitov E. *Mahalla Transformation: From a Traditional Community to a Social Institution*. Gumilyov Journal of Sociology. 2025.
3. Tulenova G. Features of the Inclusive Education Model in the New Uzbekistan. 2025.
4. ["Thematic Factsheet \ Social Inclusion"](#) UNESCO. 2021-01-25.
5. Marupova I. Youth Involvement in Green Transition in Uzbekistan. 2025.
6. Koikkalainen, S. Noncitizens Power: Agency and the Politics of Migration. 2025.
7. Berdibekov A.I. The Nature of Inflation and Inclusive Development in Uzbekistan. 2025.
8. Sen A. *Development as Freedom*. Oxford University Press. 1999.
9. Fraser N. *Social Justice in the Age of Identity Politics*. Verso. 2003.
10. Habermas J. *Between Facts and Norms*. MIT Press. 1996.
11. Nussbaum M. *Creating Capabilities: The Human Development Approach*. Harvard University Press. 2011.
12. Duffy S. *Inclusion and Citizenship*. Journal of Social Policy, 45(3), 2016. 389-407.